



"Unitel" MChJ bosh direktori

Yastradin Y.

06.04.2016 y dan

"HAMYON" SODIQLIK DASTURI QOIDALARI

"HAMYON" sodiqlik dasturi (keyingi o'rinlarda — **"Dastur"**) Operator va (yoki) uning Hamkorlari tomonidan taqdim etiladigan mahsulotlar hamda xizmatlarga bo'lgan talabni rag'batlantirish va mijozlarning sodiqligini oshirishga qaratilgan marketing dasturi hisoblanadi.

Mazkur Qoidalar quyidagi hujjatlarning ajralmas qismi hisoblanadi:

- "UNITEL" MChJ ning Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosati;
- "BEELAB" AJ ning Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosati;
- "Beepul" to'lov xizmatidan foydalanish bo'yicha Ommaviy oferta;
- "Beepul" to'lov xizmati foydalanuvchisining Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylik siyosati;
- "hambi" mobil ilovasining Foydalanuvchi shartnomasi;
- "riitm" servisidan foydalanish bo'yicha Foydalanuvchi kelishuvi.
- "KINOM" servisi Foydalanuvchi kelishuvi.

(keyingi o'rinlarda birgalikda — **"Hujjatlar"**) va ular bilan birgalikda qo'llaniladi. Mazkur Qoidalar va Hujjatlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, Dastur bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qismda mazkur Qoidalar ustuvor kuchga ega bo'ladi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur **"HAMYON"** sodiqlik dasturi qoidalar (keyingi o'rinlarda — **"Qoidalar"**) "UNITEL" mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda — **"Operator"**) tomonidan tashkil etiladigan sodiqlik dasturida jismoniy shaxslarning ishtirok etish tartibini, shuningdek Dastur doirasida taqdim etiladigan Ballarni hisoblash, ulardan foydalanish va ularni bekor qilish shartlarini belgilaydi.

1.2. Dasturda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- Dasturda ro'yxatdan o'tish va ishtirok etish;
- Bonus hisobini yuritish;
- Ballarni hisoblash, hisobga olish, jamg'arish va ulardan foydalanish;
- Bonus hisobi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rish;
- shaxsiylashtirilgan takliflar va boshqa afzalliklarni olish;
- Dastur doirasida o'tkaziladigan Aksiyalar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

1.3. Mazkur Qoidalar ommaviy oferta hisoblanadi hamda Operator va Ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

- 1.4. Dasturga qo'shilish va mazkur Qoidalarining Aksepti Xizmatlar orqali Dasturda ro'yxatdan o'tish yo'li bilan amalga oshiriladi. Aksept amalga oshirilgan paytdan boshlab Foydalanuvchi Dasturga qo'shilgan hisoblanadi va Dastur Ishtirokchisi maqomini oladi.
- 1.5. Dasturda ishtirok etish ixtiyoriy va bepul hisoblanadi. Ishtirokchi mazkur Qoidalar bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish va ularga rioya qilish majburiyatini oladi.
- 1.6. Operator istalgan vaqtda mazkur Qoidalariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish, shuningdek Dastur amal qilishini to'liq yoki qisman to'xtatib turish yoki tugatish huquqiga ega. ~~Bunday o'zgartirishlar, agar Operator tomonidan boshqacha kuchga kirish muddati belgilanmagan bo'lsa, ular e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.~~
- 1.7. Qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar kuchga kirganidan keyin Dasturda ishtirok etish Ishtirokchining bunday o'zgartirishlarga roziligini anglatadi.

2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

- 2.1. Mazkur Qoidalar maqsadlarida quyidagi atamalar quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

"Aksiya"	Operator va (yoki) Dastur Hamkori tomonidan o'tkaziladigan marketing tadbiri bo'lib, Dasturda ishtirok etish, Ballarni hisoblash va (yoki) ulardan foydalanishning maxsus shartlarini nazarda tutadi;
"Ballar"	Foydalanuvchiga mazkur Qoidalar, Aksiyalar va maxsus takliflar shartlariga muvofiq Malakali harakatlarni amalga oshirgani uchun hisoblanadigan Dastur bonus birliklari. Ballar pul mablag'lari, elektron pullar, elektron to'lov vositalari, valyuta boyliklari, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa mol-mulk hisoblanmaydi hamda faqat Dastur doirasida foydalaniladi. Agar Operator tomonidan boshqacha belgilanmagan bo'lsa, Dastur doirasida foydalanilganda 1 (bir) Ball 1 (bir) so'm miqdorida chegirma olish huquqini beradi;
"Bonus hisobi"	Foydalanuvchining Dasturdagi virtual hisobi bo'lib, hisoblangan, foydalanilgan, tiklangan, bekor qilingan va amal qilish muddati tugagan Ballarni hisobga olish uchun mo'ljallangan;
"Malakali harakat"	Ballarni hisoblash uchun asos bo'ladigan Foydalanuvchining harakati, jumladan mahsulot, ishlar yoki xizmatlarni xarid qilish, xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish, to'lovlarni bajarish, obunalarni rasmiylashtirish, topshiriqlarni bajarish, Aksiyalarda ishtirok etish yoki Dastur Operatori va (yoki) Dastur Hamkorlari tomonidan belgilanadigan boshqa harakatlar;
"hambi" ilovasi	mobil Operatorning mobil ilovasi bo'lib, Foydalanuvchilarga telekommunikatsiya xizmatlari, raqamli servislar, kontent, Dastur funksiyalari, shuningdek Operator va Hamkorlarning boshqa servislaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi;
"Insofsiz harakatlar"	Ishtirokchining huquqlarni suiiste'mol qilishga, asossiz afzalliklar olishga, Dastur cheklovlarini chetlab o'tishga, xatolar, texnik nosozliklar, avtomatlashtirilgan vositalar yoki ishonchsiz ma'lumotlardan foydalanishga yoxud Dastur maqsadlari va shartlariga zid bo'lgan boshqa harakatlar yoki harakatsizliklari;

“Operator”		Dasturni tashkil etish, rivojlantirish, boshqarish va ma'muriy yuritishni amalga oshiruvchi “UNITEL” mas'uliyati cheklangan jamiyati;
“Dastur Hamkori”		Foydalanuvchilarga Dastur Hamkorlariga tegishli Servislar orqali Ballarni hisoblash va (yoki) ulardan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;
“Beepul” xizmati	to'lov	“BEELAB” aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etiladigan raqamli to'lov xizmati bo'lib, Foydalanuvchilarga to'lovlarni amalga oshirish, pul mablag'larini o'tkazish, bank kartalarini boshqarish, shuningdek “Beepul” to'lov xizmati funksiyalarida nazarda tutilgan boshqa servislardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi;
“Foydalanuvchi”		Dasturda ishtirok etuvchi bir yoki bir nechta Servislardan foydalanadigan jismoniy shaxs;
“Afzallik”		Dastur doirasida Ishtirokchi uchun mavjud bo'lgan afzallik bo'lib, alohida maxsus takliflar, chegirmalar, obunalar, kontent, tadbirlar va boshqa imkoniyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi;
“Servislar”		Operator va (yoki) Dastur Hamkorlarining mobil ilovalari, veb-saytlari, platformalari hamda Foydalanuvchilarning Dasturda ishtirok etishini ta'minlovchi boshqa axborot resurslari;
“Kinom” servisi		Foydalanuvchilarga audiovizual kontentdan foydalanish, shu jumladan uni qidirish, tanlash, tomosha qilish hamda Servis funksiyalarida nazarda tutilgan boshqa imkoniyatlardan foydalanishni ta'minlovchi raqamli servis;
“riitm” servisi		Foydalanuvchilarga musiqiy kontentdan oqimli ijro etish (striming) orqali foydalanish, shuningdek bunday kontentni qidirish, tanlash, tinglash va ijro etishni boshqarish imkoniyatini taqdim etuvchi raqamli servis;
“Texnik nosozlik”		Dastur faoliyatiga, Ballarni to'g'ri hisoblash, hisobdan chiqarish yoki hisobga olish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minot, uskunarlar, aloqa kanallari yoki boshqa texnik vositalar ishining buzilishi;
“Ishtirokchi”		mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda Dasturda ro'yxatdan o'tgan hamda Dasturda ishtirok etish huquqini olgan Foydalanuvchi;
“Akkaunt”		Foydalanuvchining tegishli Servisdagi akkaunti bo'lib, u orqali Dasturda ishtirok etish ta'minlanadi.

2.2. Mazkur bo'limda ta'riflanmagan atamalar tegishli Hujjatlarda hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan ma'nolarda qo'llaniladi.

3. DASTUR ISHTIROKCHILARI VA DASTURGA QO'SHILISH TARTIBI

3.1. Dastur ishtirokchilari

3.1.1. Dastur Ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda mustaqil ishtirok etish uchun belgilangan yoshga yetgan, muomala

layoqatiga ega bo'lgan hamda mazkur Qoidalarga muvofiq Dasturga qo'shilish tartibidan o'tgan jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

3.1.2. Yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va boshqa tadbirkorlik faoliyati subyektlari Dastur Ishtirokchilari hisoblanmaydi.

3.1.3. Bitta Foydalanuvchi faqat bitta Bonus hisobiga ega bo'lish huquqiga ega.

3.1.4. Dastur Operatori Dasturda ishtirok etishga qo'yiladigan qo'shimcha mezonlarni, jumladan yosh, bo'lib turgan mamlakat, foydalaniladigan Servislar yoki boshqa parametrlar bo'yicha cheklovlarni belgilash huquqiga ega.

3.2. Dasturga qo'shilish tartibi

3.2.1. Dasturga qo'shilish mazkur Qoidalarni aksept qilish orqali ommaviy oferta shartlari asosida amalga oshiriladi.

3.2.2. Foydalanuvchining Servis funksiyalari orqali Dasturda ro'yxatdan o'tishi mazkur Qoidalarining Aksepti hisoblanadi. Ro'yxatdan o'tishni yakunlash orqali Foydalanuvchi mazkur Qoidalar bilan tanishganligini, ularning mazmunini tushunganligini hamda ularni hech qanday izoh va istisnalarsiz to'liq qabul qilganligini tasdiqlaydi.

3.2.3. Dasturda ro'yxatdan o'tish muvaffaqiyatli yakunlangan paytdan boshlab Foydalanuvchi Dasturga qo'shilgan hisoblanadi va Dastur Ishtirokchisi maqomini oladi.

3.3. Ro'yxatdan o'tish:

3.3.1. Dasturda ro'yxatdan o'tish Dasturda ishtirok etuvchi Servislarning tegishli interfeyslari orqali amalga oshiriladi.

3.3.2. Dasturda ro'yxatdan o'tishda Foydalanuvchi mobil telefon raqamini taqdim etadi. Ushbu raqam, agar Dastur Operatori tomonidan boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, Dasturda Foydalanuvchining identifikatori sifatida foydalaniladi.

3.3.3. Foydalanuvchi Dasturda ro'yxatdan o'tishda ishonchli, to'liq va dolzarb ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek ular o'zgartirgan taqdirda bunday ma'lumotlarni o'z vaqtida yangilab borish majburiyatini oladi.

3.3.4. Dastur Operatori ishonchsiz ma'lumotlar aniqlangan, mazkur Qoidalar buzilgan yoki Insofsiz harakatlar alomatlari aniqlangan taqdirda Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish, uning Dasturdagi ishtirokini to'xtatib turish yoki tugatish huquqiga ega.

3.4. Maxsus ulanish usullari:

3.4.1. Dastur operatori Dasturga qo'shilishning qo'shimcha usullarini, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, nazarda tutishga haqli:

- Dastur Hamkorlari orqali ulanish;
- Aksiyalarda ishtirok etish;
- promokodlar yoki referal havolalardan foydalanish. Referal dastur shartlari, jumladan hisoblanadigan Ballar miqdori, ularni hisoblash tartibi va muddatlari, shuningdek cheklovlar Operator tomonidan belgilanadi;
- ayrim Servislardan foydalanilganda avtomatik ulanish.

3.4.2. Bunday qo‘shilish usullarining shartlari mazkur Qoidalarining ajralmas qismi hisoblanadigan alohida qoidalar bilan tartibga solinishi mumkin.

- 3.5. Dastur Ishtirokchi statuslari (darajalari) tizimini nazarda tutishi mumkin. Statuslar ro‘yxati, ularni berish shartlari, amal qilish muddati hamda har bir darajaning Afzalliklari Operator tomonidan belgilanadi va Servislar orqali hamda (yoki) <https://beeline.uz> manzilida tegishli ma‘lumotlarni joylashtirish orqali Ishtirokchilar e‘tiboriga yetkaziladi.

4. BALLARNI HISOBLASH TARTIBI

- 4.1. Ballar Ishtirokchiga Dastur doirasida Malakali harakatlarni amalga oshirgani uchun, jumladan Operator va (yoki) Dastur Hamkorlari Servislaridan foydalangani, shuningdek Aksiylar va boshqa marketing tashabbuslarida ishtirok etgani uchun hisoblanadi.
- 4.2. Ballarni hisoblash tartibi, jumladan Malakali harakatlar ro‘yxati, hisoblanadigan Ballar miqdori va ularni olish shartlari Operator va (yoki) Dastur Hamkorlari tomonidan belgilanadi hamda tegishli Servis orqali va (yoki) <https://beeline.uz> manzilida tegishli ma‘lumotlarni joylashtirish orqali Foydalanuvchilar e‘tiboriga yetkaziladi.
- 4.3. Ballar, agar mazkur Qoidalarda yoki tegishli Aksiya shartlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, Malakali harakat amalga oshirilganligi tasdiqlangandan so‘ng Foydalanuvchining Bonus hisobiga hisoblanadi. Operator mazkur Qoidalar buzilganligi, Insofsiz harakatlar, Texnik nosozlik alomatlari yoki qo‘shimcha tekshiruvni talab qiluvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, Malakali harakat tekshiruvi yakunlangunga qadar Ballarni hisoblashni kechiktirish huquqiga ega. Bunda:
- 4.3.1. Insofsiz harakatlar alomatlari aniqlangan, Ishtirokchi tomonidan mazkur Qoidalar buzilgan yoki Ballarning noqonuniy ravishda olinganligini tasdiqlovchi boshqa holatlar aniqlangan taqdirda, Operator Ballarni to‘liq yoki qisman hisoblashni rad etish huquqiga ega.
- 4.4. Hisoblangan Ballar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Foydalanuvchining tegishli Servisdagi Bonus hisobida aks ettiriladi. Bunda:
- 4.4.1. Dastur Hamkorlarida amalga oshirilgan Malakali harakatlar bo‘yicha Ballarni hisoblash tegishli Dastur Hamkori tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida Operator tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ma‘lumotlarda xatolar yoki nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, Ballar Dastur Hamkoridan aniqlashtirilgan ma‘lumotlar olingandan so‘ng hisoblanadi.
- 4.4.2. Operator Dastur Hamkoridan va (yoki) Ishtirokchidan Malakali harakat amalga oshirilganligini tasdiqlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma‘lumotlar va hujjatlarni talab qilish, shuningdek tegishli tekshiruv yakunlangunga qadar Ballarni hisoblashni to‘xtatib turish huquqiga ega.
- 4.5. Dastur Operatori Servis, Foydalanuvchi toifasi, Malakali harakat turi, Aksiya o‘tkazilish davri yoki boshqa parametrlarga qarab Ballarni hisoblashning turli shartlarini belgilash huquqiga ega.
- 4.6. Malakali harakatlarga quyidagilar kirishi mumkin, jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda:
- Operator va (yoki) Dastur Hamkorlaridan mahsulotlar, ishlar va (yoki) xizmatlarni xarid qilish;
 - aloqa xizmatlari, raqamli servislar va obunalar uchun to‘lovni amalga oshirish;

- “Beepul” to‘lov xizmati orqali to‘lovlarni amalga oshirish;
 - Servislarga obuna rasmiylashtirish va ulardan foydalanish;
 - Operator va (yoki) Dastur Hamkorlarining Aksiyalari yoki maxsus takliflarida nazarda tutilgan topshiriqlarni bajarish;
 - Operator va (yoki) Dastur Hamkorlari tomonidan bevosita belgilangan boshqa harakatlar.
- 4.7. Agar amaldagi Aksiyalar shartlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, Dastur Operatori istalgan vaqtda Malakali harakatlar ro‘yxatini o‘zgartirish huquqiga ega.
- 4.8. Ballarni hisoblash tartibi:
- 4.8.1. Ballar har bir Malakali harakat uchun Operator va (yoki) Dastur Hamkorlari tomonidan belgilangan miqdorda hisoblanadi;
- 4.8.2. Ballar tegishli Malakali harakat amalga oshirilgan paytda yoki tegishli Servis, Dastur Hamkori, Aksiya, maxsus taklif yoki boshqa marketing faolligi uchun Operator tomonidan belgilangan boshqa muddatda hisoblanadi;
- 4.8.3. Alohida Aksiyalar, maxsus takliflar, mahsulotlar, Servislar yoki Dastur Hamkorlari uchun Operator Ballarni hisoblash, ulardan foydalanish, amal qilish muddati va ularni bekor qilishning maxsus shartlarini belgilash huquqiga ega. Bunday shartlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan usullar orqali Ishtirokchilar e‘tiboriga yetkaziladi.
- 4.9. Cheklovlar va istisnolar
- 4.9.1. Quydagi holatlarda Ballar hisoblanmaydi:
- haqiqiy emas, bekor qilingan yoki qaytarilgan deb topilgan Malakali harakatlar uchun;
 - Aksiya shartlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahsulotlar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirishda Ballardan foydalanilganda;
 - mazkur Qoidalar buzgan holda amalga oshirilgan harakatlar uchun;
 - Operator tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalar uchun.
- 4.9.2. Dastur Operatori mahsulotlar, xizmatlar, Servislar yoki Dastur Hamkorlarining ayrim toifalari bo‘yicha Ballarni hisoblashni cheklash yoki bekor qilish huquqiga ega.
- 4.9.3. Bir Ishtirokchiga 1 (bir) kalendar oyi davomida hisoblanishi mumkin bo‘lgan Ballarning maksimal miqdori 500 000 (besh yuz ming) Ballni tashkil etadi. Mazkur limitga erishilgandan so‘ng Ballarni hisoblash keyingi kalendar oyining birinchi kunidan boshlab qayta tiklanadi.
- 4.10. Operator va (yoki) Dastur Hamkorlari Aksiyalar doirasida Ballarni hisoblashning oshirilgan stavkalarini, maxsus koeffitsiyentlarni, bonus mexanikalarini yoki boshqa rag‘batlantiruvchi shartlarni belgilash huquqiga ega. Tegishli Aksiyada bevosita nazarda tutilgan qismda Aksiya shartlari Ballarni hisoblashning umumiy qoidalariga nisbatan ustuvor hisoblanishi mumkin.
- 4.11. Operator Dasturda ro‘yxatdan o‘tganlik yoki Operator tomonidan belgilangan boshqa shartlar bajarilgan taqdirda Ishtirokchilarga salom Ballarini hisoblash huquqiga ega.

5. BALLARDAN FOYDALANISH TARTIBI

- 5.1. Ishtirokchi mazkur Qoidalarda, tegishli Takliflar va Aksiyalar shartlarida, shuningdek alohida Servislar va Dastur Hamkorlari qoidalarida nazarda tutilgan tartib va shartlarga muvofiq Ballardan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish, chegirmalar hamda promokodlarni olish uchun yoki <https://beeline.uz> manzilida joylashtirilgan tegishli ma'lumotlarga muvofiq foydalanish huquqiga ega.
- 5.2. Mavjud Servislar va takliflar ro'yxati, shuningdek Ballardan foydalanish shartlari Dastur Operatori va (yoki) Dastur Hamkorlari tomonidan belgilanadi hamda Servislar orqali Foydalanuvchilar e'tiboriga yetkaziladi.
- 5.3. Ballardan foydalanish Operator tomonidan belgilangan ayrim mahsulotlar, ishlar, xizmatlar, Servislar, Dastur Hamkorlari, Aksiyalar, hududlar yoki boshqa shartlar bilan cheklanishi mumkin.
- 5.4. Ballardan foydalanish Ishtirokchining Bonus hisobidan Ballarni yechish orqali amalga oshiriladi.
- 5.5. Ballardan faqat Bonus hisobida yetarli miqdorda Ballar mavjud bo'lganda foydalanish mumkin.
- 5.6. Ballar tegishli Malakali harakat tasdiqlangan paytda yoki muayyan Servisdan foydalanish shartlarida nazarda tutilgan boshqa vaqtda Bonus hisobidan yechiladi.
- 5.7. Ballar muvaffaqiyatli yechilgandan so'ng tegishli operatsiya Foydalanuvchining Bonus hisobida aks ettiriladi.
- 5.8. Ballardan foydalanish bo'yicha cheklovlar:
 - 5.8.1. Ballar pul mablag'lari, elektron pullar, chet el valyutasi yoki boshqa to'lov vositalariga almashtirilmaydi;
 - 5.8.2. Ballar oldi-sotdi, hadya qilish, boshqa shaxsga o'tkazish, garov, meros yoki boshqa tarzda begonalashtirish narsasi bo'lishi mumkin emas;
 - 5.8.3. Operator alohida takliflar yoki Servislar doirasida foydalanish mumkin bo'lgan Ballarning eng kam va (yoki) eng ko'p miqdorini belgilash huquqiga ega;
 - 5.8.4. Texnik ishlar olib borilayotgan davrda, Texnik nosozliklar yuzaga kelganda yoki Dasturning lozim darajada ishlashiga to'sqinlik qiluvchi boshqa holatlarda Ballardan foydalanish imkoni mavjud bo'lmasligi mumkin.
- 5.9. Agar Ballardan foydalanilgan Malakali harakat bekor qilinsa, tegishli taklif, Servis yoki Dastur Hamkori shartlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Operator Ishtirokchining Bonus hisobiga tegishli miqdordagi Ballarni qayta tiklash huquqiga ega. Ballarni qayta tiklash Operator va (yoki) Dastur Hamkori tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi mumkin.
- 5.10. Ayrim Servislar, Dastur Hamkorlari, Aksiyalar va takliflar uchun Ballardan foydalanishning maxsus shartlari, jumladan ularning amal qilish muddati, miqdori, foydalanish hududi, Foydalanuvchilar toifasi va boshqa parametrlar bo'yicha cheklovlar belgilanishi mumkin. Tegishli Aksiyalar va takliflar shartlari Ballardan foydalanish tartibini bevosita tartibga soluvchi qismda mazkur Qoidalariga nisbatan ustuvor hisoblanadi.
- 5.11. Ballarni yechish va ulardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar Operatorning hisob ma'lumotlari asosida belgilanadi. Servislarda aks ettirilgan ma'lumotlar bilan Operatorning

hisob ma'lumotlari o'rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, Operatorning hisob ma'lumotlari ustuvor hisoblanadi.

6. BALLARNING AMAL QILISH MUDDATI, BEKOR QILINISHI VA O'ZGARISHI

6.1. Ballarning amal qilish muddati:

6.1.1. agar tegishli Aksiya, maxsus taklif yoki boshqa marketing faolligi shartlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Ballar ular hisoblangan sanadan boshlab 12 (o'n ikki) oy davomida amal qiladi;

6.1.2. amal qilish muddati tugagach, Ballar avtomatik ravishda bekor qilinadi;

6.1.3. Operator alohida Aksiyalar, maxsus takliflar, hamkorlik dasturlari yoki boshqa marketing tadbirlari doirasida hisoblangan Ballar uchun boshqa amal qilish muddatini belgilash huquqiga ega. Bunday muddat to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda Ishtirokchilar e'tiboriga yetkaziladi.

6.2. Ballarni bekor qilish:

6.2.1. Dastur Operatori quyidagi hollarda Ballarni to'liq yoki qisman bekor qilish huquqiga ega:

- a) Ballarning amal qilish muddati tugaganda;
- b) Ballarni hisoblash uchun asos bo'lgan operatsiya (Malakali harakat) bekor qilinganda, qaytarilganda yoki haqiqiy emas deb topilganda;
- c) Ballarning noto'g'ri hisoblanishiga sabab bo'lgan Texnik nosozliklar aniqlanganda;
- d) Foydalanuvchi tomonidan Insofsiz harakatlar sodir etilganligi aniqlanganda;
- e) Foydalanuvchi mazkur Qoidalarini buzgan taqdirda;
- f) Foydalanuvchining Dasturdagi ishtiroki tugatilganda;
- g) Dastur to'liq yoki tegishli qismi bo'yicha tugatilganda;
- h) mazkur Qoidalarda, Aksiyalar shartlarida yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra.

6.2.2. Ballarning bekor qilinishi Foydalanuvchi huquqlarining buzilishi hisoblanmaydi hamda Operator zimmasiga pul mablag'larini to'lash, zararlarni qoplash yoki boshqa turdagi kompensatsiya taqdim etish majburiyatini yuklamaydi.

6.3. Ballarni o'zgartirish

6.3.1. Dastur Operatori quyidagi hollarda Foydalanuvchining Bonus hisobida aks ettirilgan Ballar miqdorini o'zgartirish huquqiga ega:

- a) Texnik nosozliklar aniqlanganda;
- b) mahsulotlar qaytarilganda, xizmatlardan voz kechilganda yoki operatsiyalar bekor qilinganda;
- c) Ballar xato hisoblanganda;
- d) Dasturdan suiiste'mol qilish alomatlari aniqlanganda;
- e) Bonus hisobi ma'lumotlarini Operatorning hisob ma'lumotlariga muvofiqlashtirish zarur bo'lganda;

f) mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.3.2. O'zgartirish Ballarni hisobdan chiqarish yoki qo'shimcha hisoblash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

6.3.3. Ballarga o'zgarish kiritish Operator tomonidan mazkur Qoidalarining 6.3.1-bandida nazarda tutilgan asoslar aniqlangan paytdan boshlab, tegishli tekshiruvni o'tkazish va texnik amallarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqtni hisobga olgan holda oqilona muddatda amalga oshiriladi.

6.4. Dasturdagi ishtirok tugatilishining oqibatlari:

6.4.1. Foydalanuvchining Dasturdagi ishtiroki tugatilgan taqdirda, Operator Foydalanuvchining Bonus hisobidagi foydalanilmagan barcha Ballarni bekor qilish huquqiga ega.

6.4.2. Ishtirokchi Dasturdagi ishtiroki tugatiladigan sanaga yoki Dastur amal qilishi to'xtatiladigan sanaga qadar Ballardan mustaqil ravishda foydalanish majburiyatini oladi.

6.4.3. Ballar bekor qilingandan so'ng Ishtirokchi ularni tiklashni, pul kompensatsiyasini to'lashni yoki boshqa turdagi kompensatsiya taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

7. DASTURDAGI ISHTIROKNI TO'XTATIB TURISH VA TUGATISH

7.1. Operator mazkur Qoidalarda, Aksiyalar shartlarida, tegishli Hujjatlarda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Ishtirokchining Dasturdagi ishtirokini to'xtatib turish yoki tugatish huquqiga ega.

7.2. Dasturdagi ishtirokning to'xtatib turilishi Ballarni hisoblash va ulardan foydalanish imkoniyatining vaqtincha cheklanishiga, shuningdek ayrim Afzalliklar, takliflar, Aksiyalar va Dastur funksiyalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

7.3. Dasturdagi ishtirokning tugatilishi Ishtirokchining Dasturdagi ishtiroki bilan bog'liq huquqlarining bekor bo'lishiga, shuningdek mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa oqibatlarga olib keladi.

7.4. Operator quyidagi hollarda Ishtirokchining Dasturdagi ishtirokini to'xtatib turish huquqiga ega:

- a) Insofsiz harakatlar alomatlari aniqlanganda;
- b) g'ayrioddiy, shubhali yoki firibgarlik alomatlariga ega bo'lgan faollik aniqlanganda;
- c) Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarni tekshirish zarurati yuzaga kelganda;
- d) Ishtirokchi tomonidan ishonchsiz, to'liq bo'lmagan yoki eskirgan ma'lumotlar taqdim etilganda;
- e) Ishtirokchi mazkur Qoidalar, Aksiyalar shartlari yoki Hujjatlar talablarini buzgan taqdirda;
- f) vakolatli davlat organlarining talablari kelib tushganda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda;
- g) Texnik nosozliklar, axborot xavfsizligi bilan bog'liq hodisalar yoki Dasturning to'g'ri ishlashiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuzaga kelganda;

- h) Operatorning asoslantirilgan fikriga ko'ra, Dasturdan suiiste'mol qilinishiga, Operatorga, Dastur Hamkorlariga yoki boshqa Ishtirokchilarga zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar mavjud bo'lganda.

7.4.1. Mazkur Qoidalarining 7.4-bandida nazarda tutilgan hollarda Operator Ishtirokchidan mazkur Qoidalariga rioya etilganligini tekshirish, firibgarlikning oldini olish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini hamda Operatorning ichki xavfsizlik tartib-taomillarini bajarish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar, hujjatlar yoki tasdiqlovchi materiallarni talab qilish huquqiga ega. Bunday tekshiruv yakuniga qadar Operator Ballarni hisoblash va (yoki) ulardan foydalanishni, shuningdek Dasturning ayrim funksiyalaridan foydalanishni vaqtincha cheklash huquqiga ega. Mazkur ma'lumotlar oqilona muddat ichida taqdim etilmagan taqdirda, bu mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda Dasturdagi ishtirokni yanada cheklash yoki tugatish uchun asos bo'lishi mumkin.

7.4.2. Mazkur Qoidalar maqsadlarida Insofsiz harakatlar alomatlariga ega bo'lgan harakatlarga quyidagilar kirishi mumkin, jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda:

- mazkur Qoidalarni buzgan holda bitta Foydalanuvchi tomonidan bir nechta akkauntni ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish;
- faqat Ballarni olish maqsadida uchinchi shaxslar bilan kelishilgan, sun'iy ravishda yaratilgan yoki soxta operatsiyalarni amalga oshirish;
- Dastur doirasida asossiz afzalliklarga ega bo'lish maqsadida dasturiy ta'minot, avtomatlashtirilgan vositalar (botlar), skriptlar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanish;
- Ballarni noqonuniy hisoblash, saqlab qolish yoki ulardan foydalanish maqsadida Texnik nosozliklar, dasturiy ta'minotdagi xatolar yoki Dasturning ishlashidagi boshqa xususiyatlardan foydalanish;
- ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etish, boshqa shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlaridan foydalanish yoki Operatorni chalg'itishga qaratilgan boshqa usullardan foydalanish;
- Operatorning asoslantirilgan fikriga ko'ra, mazkur Qoidalarni chetlab o'tishga, asossiz afzalliklar olishga yoki Operatorga, Dastur Hamkorlariga yoxud boshqa Ishtirokchilarga zarar yetkazishga qaratilgan har qanday boshqa harakatlar (harakatsizlik).

7.5. Operator quyidagi hollarda Ishtirokchining Dasturdagi ishtirokini tugatish huquqiga ega:

- a) mazkur Qoidalar bir necha bor yoki jiddiy ravishda buzilganda;
- b) Foydalanuvchi tomonidan Insofsiz harakatlar sodir etilganda;
- c) mazkur Qoidalarni buzgan holda bir nechta akkauntlardan foydalanilganda;
- d) asossiz afzalliklarga ega bo'lish, Dastur mexanizmlarini manipulyatsiya qilish yoki Texnik nosozliklardan foydalanishga qaratilgan harakatlar sodir etilganda;
- e) Dasturning normal ishlashini buzuvchi avtomatlashtirilgan vositalar, dasturiy ta'minot yoki boshqa usullardan foydalanilganda;
- f) vakolatli davlat organlarining tegishli talablari kelib tushganda;

- g) Dastur to'liq yoki tegishli qismi bo'yicha tugatilganda;
 - h) mazkur Qoidalarda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda.
- 7.6. Ishtirokchi Operatorga tegishli murojaat yuborish yoki, agar bunday imkoniyat nazarda tutilgan bo'lsa, Servislar funksiyalaridan foydalanish orqali istalgan vaqtda Dasturdagi ishtirokini tugatish huquqiga ega. Dasturdagi ishtirok tugatilishining oqibatlari mazkur Qoidalarining 6-bo'limida belgilanadi.

8. DASTURNI O'ZGARTIRISH VA TUGATISH

- 8.1. Operator istalgan vaqtda o'z xohishiga ko'ra Dastur shartlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish huquqiga ega, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda:
- Ballarni hisoblash va ulardan foydalanish tartibiga;
 - Malakali harakatlar ro'yxatiga;
 - Servislar va Dastur Hamkorlari ro'yxatiga;
 - hisoblanadigan Ballar miqdoriga;
 - Ballarning amal qilish muddatlariga;
 - Dastur faoliyatining boshqa shartlariga.
- O'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar <https://beeline.uz> manzilida, Hamkorlar Servislarida e'lon qilingan paytdan boshlab yoki Operator tomonidan ko'rsatilgan boshqa sanadan e'tiboran kuchga kiradi. Ishtirokchi o'zgartirishlar joylashtirilgan paytdan boshlab ular haqida xabardor qilingan hisoblanadi hamda Qoidalarining amaldagi tahriri bilan mustaqil ravishda tanishish uchun javobgar hisoblanadi. O'zgartirishlar kuchga kirganidan keyin Dasturdagi ishtirokni davom ettirish Ishtirokchining bunday o'zgartirishlarga roziligini anglatadi.
- 8.2. Operator xavfsizlikni ta'minlash, suiiste'mollarning oldini olish, Texnik nosozliklarni bartaraf etish yoki boshqa sabablarga ko'ra Ishtirokchilarni oldindan xabardor qilmasdan istalgan vaqtda Dastur amal qilishini to'liq yoki qisman to'xtatib turish huquqiga ega. Dastur Operatori Dastur amal qilishini to'liq yoki alohida Servislar, Dastur Hamkorlari yoxud Foydalanuvchilar toifalariga nisbatan tugatish huquqiga ham ega.
- 8.3. Dastur o'zgartirilishi yoki tugatilishining oqibatlari:
- 8.3.1. Dasturga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, agar Operator tomonidan boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Ballarni hisoblash, ulardan foydalanish va Ballarning amal qilish muddati tegishli Malakali harakat amalga oshirilgan paytda amal qilgan Qoidalar tahririga muvofiq belgilanadi;
 - 8.3.2. Dastur tugatilgan taqdirda, Operator foydalanilmagan Ballardan foydalanish yoki ularni bekor qilish tartibini belgilaydi;
 - 8.3.3. Ishtirokchi Dasturga kiritilgan o'zgartirishlar yoki uning tugatilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni mustaqil ravishda kuzatib borishi hamda Ballardan ularning amal qilish muddati tugashidan yoki bekor qilinish sanasidan oldin foydalanishi shart;

8.3.4. Dastur tugatilgandan yoki Ballar mazkur Qoidalariga muvofiq bekor qilingandan so'ng Ishtirokchi ularni tiklashni, pul kompensatsiyasini yoki boshqa turdagi kompensatsiyani talab qilishga haqli emas.

8.4. Operator Ishtirokchilarni Dasturga kiritilgan o'zgartirishlar yoki uning tugatilishi to'g'risida Servislar, push-bildirishnomalar, SMS-xabarlar, elektron pochta yoki boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qilish huquqiga ega. Bunda alohida bildirishnoma yuborilmaganligi Ishtirokchini mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda e'lon qilingan o'zgartirishlar bilan tanishish majburiyatidan ozod etmaydi.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Tomonlar mazkur Qoidalar doirasidagi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.2. Foydalanuvchining Dasturdagi ishtiroki uning tavakkalchiligi asosida amalga oshiriladi.

9.3. Dastur Operatori quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- a) Texnik nosozliklar, aloqa uzilishlari, internet-provayderlar yoki boshqa uchinchi shaxslarning harakatlari bilan bog'liq sabablarga ko'ra Foydalanuvchining Dasturda ishtirok eta olmasligi;
- b) Servislar yoki Dasturning ayrim funksiyalarining vaqtincha ishlamasligi;
- c) Dasturdan foydalanish yoki undan foydalana olmaslik natijasida Foydalanuvchiga yetkazilgan zararlar;
- d) Dastur Hamkorlarining harakatlari, shu jumladan ular tomonidan taqdim etiladigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning sifati;
- e) Foydalanuvchi tomonidan Dastur, Servislar yoki Ballardan noto'g'ri foydalanilishi.

9.4. Dastur Operatori quyidagilarni kafolatlamaydi:

- Dasturning uzluksiz va xatosiz ishlashini;
- Texnik nosozliklar yoki Servislar faoliyatidagi uzilishlarning mavjud emasligini;
- Dasturdagi ishtirok natijasida qandaydir iqtisodiy natijalarga erishilishini.

9.5. Dastur Operatori Foydalanuvchining bilvosita, tasodifiy, jarima xarakteridagi yoki keyinchalik yuzaga kelgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda va shunga o'xshash boshqa oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

9.6. Ishtirokchi quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- a) o'z akkaunti ma'lumotlari va Servislardan foydalanish huquqining saqlanishi;
- b) uning akkauntidan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha harakatlar;
- c) taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi;
- d) mazkur Qoidalar va Servislar shartlariga rioya etilishi.

9.7. Agar boshqacha holat isbotlanmasa, Ishtirokchining akkauntidan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha harakatlar Ishtirokchining o'zi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

- 9.8. Ishtirokchi mazkur Qoidalarni buzish, Dasturdan suiiste'mol qilish yoki Insofsiz harakatlarni sodir etish natijasida Operatorga yetkazilgan zararlarni qoplash majburiyatini oladi.
- 9.9. Ishtirokchi o'zi foydalanayotgan mobil qurilma bilan Servislarning mos kelmasligi yoki o'zaro ziddiyatlari tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar uchun shaxsan javobgar bo'ladi.
- 9.10. Operator noqonuniy harakatlar natijasida Ishtirokchining akkauntiga kirish imkoniyatini qo'lga kiritgan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 9.11. Operator Hamkorlar Servislari istalgan hajmda, tarkibda va istalgan vaqtda mavjud bo'lishini kafolatlamaydi.
- 9.12. Operator aloqa operatorlari, protsessing markazlari va to'lov tizimlari faoliyatidagi uzilishlar, kontent va Hamkorlar Servislariga bo'lgan huquq egalarining harakatlari hamda qarorlari, shu jumladan foydalanish shartlarining o'zgartirilishi, kontent taqdim etilishining to'xtatilishi yoki bloklanishi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 9.13. Operator mazkur Oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi, agar bunday bajarmaslik Qoidalar aksept qilinganidan keyin yuzaga kelgan, Operator oldindan ko'ra olmagan yoki oldini ola olmagan yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari oqibatida yuz bergan bo'lsa. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlariga, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: suv toshqini, yong'in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi, epidemiya, boshqa tabiiy hodisalar, urush yoki harbiy harakatlar va shunga o'xshash holatlar kiradi.
- 9.14. Foydalanuvchi Hamkorlar Servislarining mavjudligi hamda Servislar doirasida taqdim etiladigan audiovizual asarlar texnik sabablar va (yoki) boshqa cheklovlar, jumladan huquq egalari tomonidan belgilangan cheklovlar sababli o'zgarishi mumkinligini tan oladi va bunga rozilik bildiradi. Operator Servislar doirasida muayyan audiovizual asarlardan foydalanish imkoniyati taqdim etilishini kafolatlamaydi.
- 9.15. Operator Hamkorlar Servislari va xizmatlarining sifati, uzluksiz ishlashi, taqdim etish shartlarining o'zgartirilishi yoki ularning ko'rsatilishi to'xtatilishi uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday Servislardan foydalanish bilan bog'liq barcha e'tirozlar Foydalanuvchi tomonidan bevosita tegishli Hamkorga yuborilishi mumkin.

10. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH

- 10.1. Mazkur Qoidalarining aksept qilinishi quyidagilarni anglatadi: (i) Foydalanuvchining Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosatiga to'liq va hech qanday shartlarsiz roziligini hamda (ii) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosati hamda mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan maqsadlarda uning Shaxsga doir ma'lumotlarigani ishlov berilishiga aniq, ixtiyoriy va xabardor qilingan roziligini berishini anglatadi.
- 10.2. Dastur faoliyatini ta'minlash maqsadida Operator Ishtirokchining shaxsga doir ma'lumotlarigani ishlov berishga, shuningdek ularni faqat Dastur amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hajmda va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish siyosatida nazarda tutilgan

hollarda Dastur Hamkorlariga va Dastur faoliyatini ta'minlash uchun Operator tomonidan jalb etilgan boshqa shaxslarga taqdim etishga haqli. Dastur Hamkorlari hamda Dasturni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash munosabati bilan Operator tomonidan jalb etilgan boshqa shaxslar shaxsga doir ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Operator bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq ishlov beradi hamda ularning himoya qilinishini ta'minlaydi.

11. AXBOROT VA MARKETING XABARLARI

- 11.1. Dastur faoliyatini ta'minlash maqsadida Operator Ishtirokchiga SMS-xabarlar, push-bildirishnomalar, elektron pochta, Servislardagi xabarlar, shuningdek Operator tomonidan nazarda tutilgan boshqa usullar orqali axborot va marketing xabarlarini yuborish huquqiga ega.
- 11.2. Axborot xabarlari Ishtirokchining Dasturdagi ishtiroki bilan bog'liq ma'lumotlarni, jumladan Dasturda ro'yxatdan o'tish, Ballarni hisoblash, ulardan foydalanish, ularni bekor qilish va amal qilish muddati tugashi, Dastur shartlarining o'zgartirilishi, shuningdek Dasturda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.
- 11.3. Marketing xabarlari Operator va (yoki) Dastur Hamkorlari tomonidan o'tkaziladigan Aksiyalar, maxsus takliflar, shaxsiylashtirilgan takliflar, Afzalliklar hamda boshqa tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.
- 11.4. Ishtirokchi Operatorning rasmiy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yoki Operator tomonidan nazarda tutilgan boshqa usulda, shu jumladan Servislar orqali, marketing xabarlarini olishni rad etish huquqiga ega. Marketing xabarlarini olishni rad etish Operatorning Ishtirokchiga Dasturda ishtirok etish va uning lozim darajada faoliyat yuritishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborot xabarlarini yuborish huquqini cheklamaydi.

12. QO'LLANILADIGAN HUQUQ

- 12.1. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi va talqin etiladi.
- 12.2. Mazkur Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

13. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 13.1. Mazkur Qoidalaridan kelib chiqadigan har qanday nizo muzokaralar yo'li bilan yoki Ishtirokchining yozma murojaati asosida da'vo tartibida hal etilishi lozim.
- 13.2. Ishtirokchi Operatorning qo'llab-quvvatlash xizmatiga Servislar orqali yoki mazkur Qoidalarining 15-bo'limida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali murojaat yuborishga haqli. Murojaatda uni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, jumladan tegishli Malakali harakat tavsifi, u amalga oshirilgan sana hamda Ishtirokchida mavjud boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.
- 13.3. Operator murojaatni ko'rib chiqadi va uni olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kuni ichida javob yuboradi. Taqdim etilgan ma'lumotlarni qo'shimcha o'rganish zarur bo'lgan taqdirda murojaatni ko'rib chiqish muddati 30 (o'ttiz) kalendar kunigacha uzaytirilishi mumkin. Bu haqda Operator Ishtirokchini xabardor qiladi.

- 13.4. Agar yuzaga kelgan nizo da'vo tartibida hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar joylashgan hududdagi vakolatli sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

14. YAKUNIY QOIDALAR

- 14.1. Agar bir yoki bir nechta qoidalar biron-bir sababga ko'ra haqiqiy emas yoki yuridik kuchga ega emas deb topilsa, bu mazkur Qoidalarning boshqa qoidalarining haqiqiyliги yoki qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatmaydi.
- 14.2. Bo'lim sarlavhalari faqat qulaylik uchun keltirilgan bo'lib, mazkur Qoidalarning talqin qilinishiga ta'sir ko'rsatmaydi.
- 14.3. Mazkur Qoidalar qoidalarini talqin qilishda turlicha tushunish yuzaga kelgan taqdirda, ular Dasturning maqsadlari, shuningdek halollik va oqilonalik tamoyillaridan kelib chiqib talqin etiladi.
- 14.4. Agar Ishtirokchi buning aksini isbotlamasa, uning mobil qurilmasidan foydalangan holda amalga oshirilgan har qanday harakatlar tegishli Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Mobil qurilmadan ruxsatsiz foydalanish holati aniqlangan taqdirda, Ishtirokchi bu haqda zudlik bilan Operatorni xabardor qilishi shart.
- 14.5. Mazkur Qoidalar, agar Qoidalarning tegishli tahririda boshqa kuchga kirish sanasi ko'rsatilmagan bo'lsa, Operator tomonidan <https://beeline.uz> manzilida e'lon qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi hamda ular bekor qilingunga yoki Qoidalarning yangi tahriri kuchga kirgunga qadar amal qiladi.

15. OPERATOR TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

“UNITEL” MChJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100164,
Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Tepamasjid ko'chasi, 4-uy

STIR: 201 838 002

Telefon: +99890 373 03 30

Email: 0611@beeline.uz